

**TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING
MOHIYATI VA AHAMIYATI**

Obloqulov Alisher Bahodir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi

MSc BIA 23-37 guruh

magistratura tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash-ning xorij tajribasi o'rganilib, ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan. Tahlil va natijalar. Rivojlanayotgan mamlakatlar bank amaliyotida ham tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash sohasida banklardagi risk-menejment tizimini rivojlantirish, banklarning kapitallashish darajasini oshirish va likvidligini ta'minlash, tijorat banklari va aktivlarining rentabellik darajalarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilardan biri hisoblanadi.

Vositachi sifatida tijorat banklari pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalb qiladilar va ularni aholi va tadbirkorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga taqdim etadilar.

O'zbekistonda tijorat banki faoliyatini yuritish uchun Markaziy bank

tomonidan beriladigan bank litsenziyasini olish zarur. Ushbu litsenziya muddatsiz va uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

Birinchi, banklar sizning mablag'ingiz bilan samarali foydalanishni va xavfsizligini ta'minlagan holda, omonatga pulingizni qabul qilib, foiz to'lash orqali mablag'laringizni ko'paytirib beradi.

Ikkinchi, Sizga mablag' kerak bo'lganda yoki zarur narsalarni sotib olish uchun jamg'armalaringiz yetarli bo'lmaganda, tijorat banklari sizga kreditlar taqdim etishi mumkin. Misol uchun, uy, texnika, avtomobil, mebel sotib olish, o'qish to'lovlari va boshqalar uchun kreditlar olishingiz mumkin.

Uchinchi, banklarning kassalari va mobil ilovalari orqali mahsulotlarning xaridi, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, jarimalar va boshqalar uchun to'lovlarni amalga oshirish oson.

To'rtinchi, naqd pulsiz mablag'lar bilan to'lash uchun tijorat banklarida hisobvaraqlar ochish mumkin. Bu, onlayn do'konlarda amalga oshirilgan xaridlar uchun eng qulay to'lov yo'li hisoblanadi. Bank hisobvarag'iga mablag'ingizni qo'yib, ularni xavfsizlikda saqlaysiz.

Shu bilan birga tijorat banklariga moliyaviy amaliyotlar bilan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish, savdo, sug'urta va boshqa faoliyat bilan bevosita shug'ullanish taqiqlanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards) (bundan buyon matnda MHXS deb yuritiladi) — Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi tomonidan qabul qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun belgilangan tartibda tan olingan standartlar va unga tushuntirishlar;

hisob siyosati — bank tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishda, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan tamoyillar, qoidalar va usullar majmui;

moliyaviy hisobot — bankning hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborot.

Banklar hisob siyosati va moliyaviy hisobotlarni O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, MHXS va ushbu Nizomga muvofiq ishlab chiqadilar.

Banklarning hisob siyosati

Bankning hisob siyosati bank boshqaruvi tomonidan ishlab chiqiladi hamda bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish jarayoni imkon qadar avtomatlashtirilgan tarzda (inson omilisiz) amalga oshirilishi lozim.

Banklarning hisob siyosatiga o‘zgartirishlar kiritilmaydi, bundan mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan hollar mustasno.

Qonunchilik hujjatlari yoki MHXSga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi munosabati bilan banklar hisob siyosatining faqatgina ushbu o‘zgartirishlar taalluqli bo‘lgan qismini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yiladi.

Tijorat banklarning moliyaviy hisoboti

Bank boshqaruvi moliyaviy hisobotlarni tuzadi hamda tasdiqlash uchun bankning kuzatuv kengashiga taqdim etadi.

Moliyaviy hisobotlar bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Bank boshqaruvi va kuzatuv kengashi moliyaviy hisobotlarning qonunchilik hujjatlari va MHXSga muvofiq holda bo‘lishi uchun javobgar hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarda ochib beriladigan axborotlarning tuzilishi MHXSga muvofiq bo‘lishi lozim.

Banklar tomonidan MHXSdan kelib chiqib, mazkur Nizomning 8-bandida keltirilgan hisobotlar nomlari o‘zgartirilgan holda tuzilishi, shuningdek hisobotlarda qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilishi mumkin. Masalan, “foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot” nomi o‘rniga “umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot” nomidan foydalanilishi mumkin.¹

Xulosa qilib aytganda, Hozirgi kunda, moliya bozorini tijorat banklari tomonidan investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish bir maromda va

¹ 3337-сoн 27.11.2021. Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida www.pedagoglar.org

xatarsiz muomalada bo'lishi uchun mazkur sohaga oid qonuniy me'yorlarni davr talablari darajasida ishlab chiqish hamda ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni, oddiy fuqarodan tortib, to davlat organlarigacha qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari tomonidan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishni o'zida uyg'unlashtiruvchi tizim zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.Mirziyoyev, 3337-сoн 27.11.2021. Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida.
2. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
3. Muzrapova Sh, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, Tafakkur manzili, 2020.
4. Ergasheva Sh.T., Uchebник «Международние стандарты финансово-отчетности» –T.: TGEU, 2020 g.- 307 str.
5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 – International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022
6. The manual of Accounting – IFRS 2019. The Global Accounting Consalting Servisces team of PricewaterhouseCoopers LLP 2019